AKBAROVA XOLISXON MAHMUDOVNA

**ASQAD MUXTOR IJODIDA SOHAVIY ATAMALAR
LINGVOPOETIKASI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo'qon – 2024

UO'K:811.512.133`42:008+821.512.133.09-31

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philology sciences

Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по филологическим наукам

QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD03/04. 06. 21. Fil/132.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AKBAROVA XOLISXON MAHMUDOVNA

ASQAD MUXTOR IJODIDA SOHAVIY ATAMALAR LINGVOPOETIKASI

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qo'qon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.PhD/Fil3247 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Qo'qon davlat pedagogika institutining veb-sahifasi (www.kspi.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jamoliddinova Dilnoza Mirhojiddinovna** filologiya fanlari doktori(DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Azimov Inomjon Mamasodiqovich** filologiya fanlari doktori(DSc), dotsent
	Lutfullayeva Durdona Esonovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/04.06.2021.Fil.I32.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «_2_» _08_ soat _11_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23. Tel: (99873) 542-38-38; faks: (99873) 542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_26_-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23. Tel: (99890) 508-64-42; e-mail: qdpi_arm@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «_8_» _VII_ kuni tarqatildi.
(2024-yil «_8_» _VII_ da _20_ - raqamli reyestr bayonnomasi)

M.Hakimov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.To'raxojayeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari.nomzodi, dotsent

M.Hakimova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab til birliklarining nutqiy-funksional xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bu esa til birliklarining so'zlovchi kommunikativ maqsadi bilan bog'liq holda turli nutqiy vaziyatlarda namoyon bo'luvchi funksional imkoniyatlari naqadar keng ekanligini ko'rsatdi. Mazkur jihat muayyan, xususan, badiiy nutq vaziyatida namoyon bo'luvchi poetik ifodalarni tizimli o'rganish zaruratini ham yuzaga keltirdi. Shu tariqa lug'aviy birliklarning uslubiy-funksional xususiyatlari bilan bog'liq lingvopoetik tadqiqotlar doirasi kengaydi. Bunday izlanishlar ijodkor badiiy olamining lisoniy voqelanishini yoritishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo filologiya ilmida lingvopoetika sohasi ham tilshunoslikka, ham adabiyotshunoslikka birdek aloqador, oraliq soha hisoblanadi. Tilshunoslar uchun lingvopoetikaning tilga aloqador, ya'ni ma'lum bir badiiy-estetik ma'noni yuzaga chiqaruvchi jihati muhim bo'lsa, adabiyotshunoslik uchun esa til birligi orqali ifodalanadigan poetik ma'no muhim sanaladi. Zero, tilshunoslikda muayyan adib asarlari misolida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatini ochib berish, matniy qurshovda o'rganilayotgan birliklar orqali yuzaga chiqadigan ma'no va mazmun aktualligini aniqlash hamda u bilan bog'liq qonuniyatlarni yoritish muhim nazariy masalalardan sanaladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda davlat tili sohasida olib borilgan islohotlar ma'naviy qadriyatimiz bo'lgan o'zbek tilini ilmiy asosda chuqur o'rganish, bu tilning nutqiy-funksional xususiyatlarini aniqlash ehtiyojini yuzaga keltirdi. Natijada, tilshunoslikda o'zbek tilining ilmiy tadqiqi yangi bosqichga ko'tarildi. Yangi davr tilshunosligida tilni inson, ya'ni ijodkor shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganuvchi lingvopoetika yo'nalishiga asos solindi. "Endigi vazifamiz – ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, ilm-fanni, ilmiy-innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirish"[1] dan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, tilshunoslikda til birliklarining lingvopoetik xususiyatlarini *ijodkor – til – badiiyat* birligi tamoyili asosida o'rganish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi 177-1-son yangi tahrirda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311-son "O'zbekiston Respublikasi davlat tili haqida"gi Qonunini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturiga tegishli o'zgartishlar kiritish to'g'risida" Qarori talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "Ozbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida", shuningdek, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada

---

[1] Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 168-174 б.

rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot va strategiyasi toʻgʻrisida"gi farmonlari va 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tadqiq etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish toʻgʻrisida", 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "Oʻzbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinganligining oʻttiz yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida"gi qarorlari hamda mazkur jarayonga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" ustuvor yoʻnalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida badiiy asar tilini oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqotlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Badiiy asar tili haqidagi ilk qarashlar qadimgi yunon faylasufi Aristotel nomi bilan bogʻliq [2]. Lingvopoetikaning nazariy masalalari dastlab xorij olimlari V.V.Vinogradov, B.A.Larin, V.P.Grigoryev, N.M.Shanskiy, V.Ya.Zadornova, A.A.Lipgart, M.E.Konurbayev[3] kabi tilshunoslar tomonidan ilgari surildi va rivojlantirildi. Ularning asarlarida badiiy matn tahlilida til birliklarining badiiylikni hosil qilishdagi roliga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlandi.

Oʻtgan asrning soʻnggi choragidan boshlab oʻzbek tilshunosligida ham lingvopoetik tadqiqotlarni amalga oshirishga qiziqish yuzaga keldi. Xususan, N.Mahmudov, I.K.Mirzayev, S.Karimov, G.Imomova, G.Muhammadjonova, M.Yaqubbekova, D.Shadiyeva, G.Jumanazarova, D.Jamoliddinova, M.Yuldashev, R.Normurodov, Sh.Toshxoʻjayeva, M.Qurbonovalarning tadqiqot ishlarida badiiy asarda til birliklarining lingvopoetik xususiyatlari ochib berildi [4].

---

[2] Qarang: Гаспаров М. Л. Античная риторика как система // Античная поэтика: Риторическся теория и литературная практика. – М, 1991. – С. 27-59.

[3] Виноградов В.В. Стилистика, теория поэтической речи. Поэтика. – М., 1969. – 256 с.; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1974. – 288 с.; Григорьев В.П. Поэтика слова. – М.: Наука, 1979. – 343 с.; Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста. – Л.: Просвещение, 1990, – 425 с.; Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1992. – 56 с.; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале английской литературы): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1996. – 26 с.; Конурбаев М.Э. Библия Короля Иакова в лингвопоэтическом освещении. –М.: Диалог – МГУ, 1998. – 34 с.

[4] Маҳмудов Н. Ойбек насрида ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 9. – Б. 48-50; Shu muallif. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – №4. – В.30-38; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992. – 50с.; Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. д-ри … дисс. – Тошкент, 1993. – 56 б.; Имомова Г.М. Типик миллий характер яратишда бадиий нутқнинг ўрни: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 24 б.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2003. – 25б.; Якуббекова М.М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005. – 257 б. ; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 144 б.; Жуманазарова Г. "Ширин билан

O'zbek tilshunosligida O'zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtorning badiiy tildan foydalanish mahorati Sh.Norova tomonidan maxsus o'rganilgan. Bu ishda adib asarlarining leksik-semantik xususiyatlari yoritilgan, "Chinor" romanidagi sintaktik birliklar lingvopoetikasi ochib berilgan[5]. Ammo mazkur ishda adib asarlari matnida qo'llanilgan kasbiy atama va terminlar lingvopoetikasi tadqiq etilmagan. Qayd etilgan leksik birliklarning badiiylikni hosil qilishdagi ahamiyatini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammo tadqiqi, bir tomondan, ijodkorning kasbiy atama va terminlardan foydalanish mahoratini ochib bersa, boshqa tomondan, terminlarning badiiy uslubga xoslanish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi lingvopoetikaning nazariy va amaliy masalalarini yoritish, Asqad Muxtor asarlarida qo'llangan kasbiy atamalar va fan sohalariga oid terminlarning badiiy-estetik vazifalarini aniqlash, ularning badiiy jihatdan uslubiy xoslanishi masalasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek tilshunosligida lingvopoetika yo'nalishining yuzaga kelishi, taraqqiyoti, tahlil tamoyillari hamda bu soha muammolarini yoritish asosida Asqad Muxtorning nasriy va nazmiy asarlarida qo'llangan kasbiy atama va terminlarning lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish;

adib asarlaridagi kasbiy atama va ilmiy terminlar asosida hosil qilingan o'xshatish qurilmalarini aniqlash;

ijodkor tomonidan qo'llangan kasbiy atama va terminlarning metaforik xususiyatlarini dalillash;

Asqad Muxtor asarlari misolida turli fanlar terminlarining badiiy matndagi uslubiy xoslanishi va bu boradagi ijodkor mahoratini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Asqad Muxtorning badiiy asarlari tanlangan.

Tadqiqot predmetini adib asarlarida qo'llangan kasbiy atama va terminlarning lingvopoetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, funksional-stilistik, leksik-semantik, kontekstual hamda lingvopoetik tahlil usulllaridan foydalanildi.

Шакар" достонининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари (Фозил Йўлдош ўғли варианти асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 278 б.; Жамолиддинова Д. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 137 б.; Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқики: Филол.фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 314 б.; Тошхўжаева Ш. Ғ. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри (PhD) … дисс. – Фарғона, 2017. – 34 б.; Қурбонова М.О. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри (PhD) … дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 23 б.

[5] Норова Ш. Асқад Мухторнинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри (PhD) … дисс. – Тошкент, 2024. – 114-135 б.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jahon tilshunosligining lingvopoetika sohasida erishilgan nazariy va amaliy yutuqlar asosida Asqad Muxtor nasriy hamda nazmiy asarlarida qoʻllangan terminologik birliklarning lingvopoetik-hosilaviy xususiyatlari aniqlangan;

oʻzbek badiiy matnlarida lingvopoetik maqsadga erishishda individual oʻxshatish qurilmalarining kasbiy atama va terminlar vositasida hosil boʻlishi mumkinligi Asqad Muxtor asarlari leksik tizimi misolida dalillangan;

ijodkor asarlarida turli soha atamalari va terminlarining ijodkor topilmalari sifatida xususiy-muallif hamda anʼanaviy metaforik maʼno ifodalashi, ular orqali badiiy matnda tilning estetik vazifaviy imkoniyatlarining namoyon boʻlishi asoslangan;

Asqad Muxtor asarlari misolida oʻzbek tilidagi ayrim kasbiy atamalar hamda turli fanlar terminlarining badiiy uslubga xoslanish imkoniyati va bu boradagi ijodkor mahorati lingvopoetik jihatdan yoritilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi:

lingvopoetika sohasining rivojlanish bosqichlari va tarixiy taraqqiyoti ilmiy asoslangan, shuningdek, oʻzbek lingvopoetikasining dolzarb muammolari aniqlangan;

Asqad Muxtor asarlari lingvopoetik tadqiqi boʻyicha chiqarilgan xulosalar oʻzbek tilshunosligida mazkur soha rivojida muhim oʻrin tutishi dalillangan;

dissertatsiya xulosalari lingvopoetikaga oid darslik va qoʻllanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

terminlarga xos semantik, kommunikativ va lingvopoetik jihatlarning matnda namoyon boʻlishini shu gap doirasida emas, balki matn doirasida oʻrganish maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan;

kasbiy atama va terminlar boshqa lugʻaviy birliklar singari metaforik maʼnoda qoʻllanib, yozuvchining individual uslubini namoyon qiladigan til birligi ekanligi koʻrsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qoʻyilganligi, ilmiy-nazariy xulosalarning zamonaviy yondashuvlar asosida chiqarilganligi, badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlarini ochib berishda Asqad Muxtorning qissa, hikoya, romanlari hamda sheʼrlariga asoslanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvopoetika sohasining nazariy masalalari, xususan, Asqad Muxtor asarlarida qoʻllangan kasbiy atama va terminlarning badiiy til xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallari va natijalaridan oliy oʻquv yurtlari bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari uchun lingvopoetikaga oid oʻquv darsliklarini tuzishda, "Badiiy matnning lingvistik tahlili", "Nutq madaniyati" kabi fanlarni oʻqitishda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, ushbu tadqiqot biror bir ijodkor asarlari tili lingvopoetikasini tadqiq etishda, lingvopoetik terminlar lugʻatini tuzishda ilmiy-amaliy manba vazifasini oʻtaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Asqad Muxtor ijodida kasbiy atama va terminlar lingvopoetikasi tahlili bo'yicha olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriy qilingan:

jahon tilshunosligining lingvopoetika sohasida erishilgan nazariy va amaliy yutuqlar asosida Asqad Muxtor nasriy hamda nazmiy asarlarida qo'llangan terminologik birliklarning lingvopoetik-hosilaviy xususiyatlarining aks etishi haqidagi xulosalardan 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan FZ-2016-0908165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 18.09.2023-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu loyiha kasbiy atama va terminlarning lingvopoetik xususiyatlariga oid yangi qarashlar bilan boyitilgan;

ijodkor asarlarida turli soha atamalari va terminlarining ijodkor topilmalari sifatida xususiy-muallif hamda an'anaviy metaforik ma'no ifodalashi va ular orqali badiiy matnda tilning estetik vazifaviy imkoniyatlarining namoyon bo'lishi bo'yicha berilgan xulosalardan FA-A1-G007-raqamli "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 28.12.2023-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyihada bayon etilgan nazariy fikrlar lingvopoetikaning tadqiq obyektlari doirasini yanada kengaytirishga xizmat qilgan;

Asqad Muxtor asarlari misolida o'zbek tilidagi ayrim kasbiy atamalar hamda turli fanlar terminlarining badiiy uslubga xoslanish imkoniyati va bu boradagi ijodkor mahorati haqidagi xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"da "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari", "Adabiy jarayon" dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 9-yanvardagi 04.36-47-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kasbiy atamalarning uslubiy xoslanishi, kasbiy atama va ilmiy terminlarning badiiy-estetik vazifalariga oid ilmiy-nazariy qarashlar asosida tayyorlangan radiodasturlarning mazmunan mukammallashuviga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 6 ta maqolada o'z ifodasini topgan, jumladan, respublika miqyosida 4 ta ilmiy maqola e'lon qilingan, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada esa 2 ta maqola aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 127 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **"Lingvopoetikaning nazariy masalalari"** deb nomlangan, mazkur bobda lingvopoetik tadqiqotlarning ahamiyati, o'rganilish bosqichlari, tahlil turlari tadqiqotlar talqini keng yoritib berilgan. **"Lingvopoetikaning dolzarb muammolari"** faslida bugungi kundagi sohaga oid ko'tarilayotgan muammolar va ularning yechimiga doir mulohazalar jahon va o'zbek tilshunosligi misolida ochib berilgan.

Badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish nafaqat dunyo tilshunosligi, balki o'zbek tilshunosligining ham hozirgi paytdagi muhim masalalaridan biridir. Ushbu sohaning tadqiq ko'lamiga nazar solinsa, unda hali to'liq yechimini topmagan muammolar ko'zga tashlanadi.

XX asr tilshunosligida badiiy asar tili tadqiqiga keng e'tibor berilib, *ritorika* va *poetika* masalalari birlashtirilgan holda tadqiq etilganligi natijasida *lingvopoetika* termini yuzaga keldi.

O'zbek tilshunosligida XX asrning 60-70-yillaridan boshlab lingvopoetikaga bo'lgan qiziqish shakllana boshladi. Bu davrda *lingvopoetika* termini poetik tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishi sifatida yuritila boshlandi. Tilshunoslar *filologik poetika* terminidan ko'ra *lingvopoetika* terminidan foydalanishni ma'qul ko'rishdi. *Lingvopoetika* terminida badiiy asar tili va poetikasi o'rtasidagi dialektik bog'lanish aks etadi.

Lingvopoetikaning nazariy asoslarini ishlab chiqish, bir tizimga solish, adabiyotshunoslik bilan bog'liq obrazlilik, individuallik, fikr, badiiy g'oya va badiiy mahorat kabi masalalarni o'zida mujassam etgan holda uning tadqiq usullarini o'rganish bugungi kun filologiyasining muhim vazifalaridan biridir.

Bobning ikkinchi fasli **"Lingvopoetik tadqiqotlar tarixi va tahlil turlari"** deb nomlanib, unda ko'plab olimlarning soha taraqqiyotiga qo'shgan hissalari va olib borilgan izlanishlar natijalari tahlil qilinadi.

Ma'lumki, yangi avlodni tarbiyalash, inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish yo'li bilan ijtimoiy taraqqiyotning ijodkor insonga bo'lgan ehtiyojini qondirishdek ulug'vor vazifa badiiy adabiyot va tilshunoslik fani oldiga ham yangi talablar qo'ymoqdaki natijada, ijtimoiy hayotning bu sohaga ehtiyoji va talabi, o'z navbatda, uning hayotdagi o'rni va mavqeyi ham tobora ortib bormoqda.

Badiiy asar tiliga kategorial yondashuvning shakllanishi va so'zni ijodning shakl va mazmun xossalari birligida o'rganishga intilishning ortishi tufayli asarni falsafiy hamda estetik jihatdan ko'ra olish va uni tushunishda lingvopoetika sohasi zamin bo'ldi. Jumladan, L.Sherba, V.Vinogradov, Yakobson, Y.Stepanov, O.Axmanova, A.Potebnya, V.Jirmunskiy, V.Zadornova, G.Vinokur[6] ishlari lingvopoetika sohasini keng ko'lamda tahlil qilish uchun ilmiy zamin yaratdi.

Asqad Muxtorning ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan dastlabki tadqiqot adabiyotshunos O.Tog'ayevning "Asqad Muxtor romanlarida konfliktlar va xarakterlar" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasidir[7]. Tadqiqot ishida yozuvchi romanlari misolida badiiy konflikt va qahramonlar xarakteri hayot va ijtimoiy voqelik bilan uzviy bog'liqlikda o'rganilgan.

M.Sultonova va N.Vladimirovalarning tadqiqotlari yozuvchining badiiy-estetik izlanishlariga bag'ishlangan dastlabki monografik tadqiqotdir. "Qahramonlarning shakllanishi" nomli ushbu monografiyada "Qaraqalpoq qissasi", "Opa-singillar", "Tug'ilish" asarlari tahlil etilgan[8]. Tadqiqotda adibning ijodiy niyati, estetik nuqtayi nazari asar qahramonlarining ma'naviyatida, fikriy salohiyatida, ijtimoiy faoliyatida o'z aksini topishi o'rganilgan.

O.Tog'ayevning "Asqad Muxtor adabiiy portreti[9]" va B.Sayimovning "Asqad Muxtor prozasi" monografiyasi[10] da yozuvchining nasrdagi badiiy mahorati tahlil etilgan.

Asqad Muxtor faoliyatiga oid yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlarining barchasida adabiyotshunoslik jihatdandan yondashilgan bo'lsa, Sh.Norovaning "Asqad Muxtorning badiiy til mahorati" ("Chinor" romani misolida) nomli dissertatsiyasida ilk bor tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

Mazkur dissertatsiya ham lingvistik planda bajarilgan bo'lib, unda Asqad Muxtor ijodida qo'llangan kasbiy atama va terminlarni lingvopoetik jihatdan o'rganilganligi dolzarbdir.

Birinchi bobning uchinchi fasli "**Kasbiy atama va ilmiy terminlarning badiiy-estetik vazifalari**" deb nomlangan. Bizga ma'lumki, ilmiy uslubda fan va texnikaning turli tarmoqlariga oid ilmiy asarlar, darslik va o'quv qo'llanmalari yoziladi. Bu uslubning boshqa uslublardan farqi aniq ma'lumotlar asosida dalillangan, isbotlangan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy

---

[6] Щерба Л В. Избранные работы по русскому языку. – М., 1957; Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М., 1959.C.20; Jakobson R. Linguistik and poetics. Стил в языке. 1960. Cambridge, MA: MIT Press.P.24; Степанов Ю. Французская стилистика. - М.: Высшая школа, 1965. C.32; Ахманова О.С. Словарь лингвитических терминов. – М., 1969.C.67; Петебня А.А. Эстетика и поетика Текст. / - М.: Высшая школа,1976.C.45; Жирмунской В. М. Теория литературы. Поетика. Стилистика. - Л., 1977.C.19; Задорнова В. Восприятие и интерпретация художественного текста. – М., 1984. – С.35; Винокур Г. О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1991. – С. 44.

[7] Тоғаев О. Асқад Мухтор романларида конфликтлар ва характерлар: филол. фан ном. дисс. автореф. – Т., 1962. – Б.24.

[8] Султонова М., Владимирова Н. Қаҳрамоннинг шаклланиши (Асқад Мухтор ва Ҳамид Ғулом прозаси материаллари асосида) / Масъул муҳаррир Н.Каримов. – Т.: Фан, 1965. – Б. 6 – 63.

[9] Тоғаев О. Асқад Мухтор . – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – Б.148.

[10] Саймов Б. Асқад Мухтор прозаси. – Т.: Фан, 1969. – Б.198.

bo‘lishidir. Ilmiy uslub ham adabiy tilning bir ko‘rinishi bo‘lib, bir qator o‘ziga xos jihatlarga ega:

– boshqa uslublardan ajralib turadigan belgisi sifatida monologik belgilari mavjudligi;

– obrazli tasvirlarsiz, aksincha, aniq ma’lumotlarning umumlashgan xususiyatini ko‘rsatib, tushunchalarga mos keladigan terminlar bilan ish ko‘radi. Kitobxonning his-tuyg‘usiga, badiiy-estetik dunyosiga emas, ongiga ta’sir etadi.

Asqad Muxtorning "Bo‘ronlarda bordek halovat" qissasini tahlil qilar ekanmiz, unda juda ko‘plab sohaviy terminlar badiiy uslubga singdirilganligini ko‘rish mumkin. Bu birliklar orqali Asqad Muxtor ilmiy uslubga xos xususiyatlarni badiiy uslubga ko‘chirgan. Bu esa uslublararo aloqalarning yuzaga kelganini ko‘rsatadi.

Samovar ham darhol "uyg‘onib", kuylashga tushdi. Gubanov o‘ziga qadrdon shu **"kuy"** *jo‘rligida xotirlay boshladi: – U kezlarda yosh betonchi edim. Fabrikani qurishga qurib bo‘ldig-u, endi uni qo‘riqlashning o‘zi bir azob edi: bosmachilar haftada ikki-uch* **huruj qilardi** *("Bo‘ronlarda bordek halovat").*

Ushbu mikromatndan ko‘rinib turibdi-ki, *kuy* va *huruj qilardi* so‘zlari matnda o‘z ma’nosida emas. Ushbu so‘zlarning ma’nolariga e’tibor beradigan bo‘lsak, bu o‘rinda *kuy* so‘zi samovar qaynagan vaqtda chiqadigan ovozga nisbatan qo‘llangan. *Huruj qilardi* birikmasi ham bu o‘rinda ko‘chma ma’noda qo‘llanib, bosmachilar bosqinini ifodalamoqda. Bu so‘zning asl ma’nosiga e’tibor berilsa, biron bir kasalning eng kuchaygan pallasini anglatadi. Adib asarda *kuy, huruj qilardi* so‘zlari orqali insonning ruhiy holatini jonli tasvirlashga harakat qilgan, ushbu terminlar vositasida o‘ziga xos o‘xshatishlarni hosil qiladi.

Ikkinchi bob **"Asqad Muxtor asarlarida qo‘llangan kasbiy atama va ilmiy terminlarning badiiy-estetik vazifalari"** deb nomlangan. Uning **"Asqad Muxtorning nasriy asarlarida kasbiy atama va ilmiy terminlar"** deb nomlangan birinchi faslida badiiy matnning poetik ta’sir imkoniyatlari yoritilgan.

Har qanday yozuvchi yoki shoir badiiy asarda kitobxonga hissiy ta’sir ko‘rsatishni bosh maqsad qilib qo‘yadi va ushbu maqsadga muvofiq holda nasriy yoki poetik matnda tilning muayyan vositalarini saralab qo‘llaydi. Bu jarayonda badiiy matnda tildagi barcha sath birliklari, shu jumladan, kasbiy atamalar, soha terminlari ham u yoki bu darajada ishtirok etadi.

Ma’lumki, terminlar boshqa leksik birliklar kabi badiiy matnda poetik aktuallashish imkoniyatiga ega bo‘lgan birliklar sifatida qo‘llanadi. Ular badiiy matnda yozuvchi maqsadi bilan bog‘liq holda uyg‘unlashib, lingvopoetik hosilaga aylanadi. Lekin terminlarning bu xususiyati alohida olingan gap doirasida namoyon bo‘lmaydi, ularning to‘liq aktuallashuvi uchun matniy qurshov zarur. Shuning uchun ham terminlarni matndan ajratgan holda tahlil qilib bo‘lmaydi.

Muayyan sohaga oid terminlar va sohaviy atamalar badiiy matn tarkibida qo‘llanar ekan, yozuvchining maqsadi asosida lingvopoetik yukka ega bo‘ladi. Ayniqsa, terminga badiiy tasvir vositasi sifatidagi vazifa yuklanganda uning

mohiyati oʻzgaradi, bunday vaziyatda termin matnda ilmiy muhitni yaratish vazifasini bajarmaydi. Quyidagi sheʼriy parchaga eʼtibor qaratamiz:

Ammo o, kelajak, tahlikalaring
Aks etar yurakning "qiliqlar"ida,
Chaqmoqday chaqilar **kardiogrammaning**
Darddan chil-chil singan chiziqlarida

("Kardiogramma").

Ushbu parchada ijodkor kelajakning tahlikali "qiliqlar"i yurakda iz qoldirishini taʼkidlaydi. Bu izlar kardiogramma qogʻozidagi belgilarga qiyoslanib, darddan chil-chil singanlikka yoʻyiladi. Sheʼrda *kardiogramma* termini oʻquvchida yurak kasalligi bilan bogʻliq asoratlarni hosil qilib, unga hissiy taʼsir qilishga xizmat qiladi.

Demak, ijodkor terminlardan foydalanib, badiiy matn yaratar ekan, ularni badiiy matn qonuniyatlariga boʻysundirishga harakat qiladi. Ekspressivlikni ifodalash imkoniyati keng boʻlgan terminlar bunday vaziyatda ijodkorga qoʻl keladi.

Xullas, Asqad Muxtor nasriy asarlarida xalqning muayyan ijtimoiy qatlamlari hayotini tasvirlashda ularning kasbiy faoliyatlari haqida maʼlumot beruvchi koʻplab kasbiy atamalar, soha terminlaridan foydalanilgan. Ularga oʻziga xos estetik vazifa yuklanib, asarlarning poetik qimmati oshirilgan.

Ushbu bobning ikkinchi fasli "**Asqad Muxtor asarlarida kasbiy atama va ilmiy terminlarning oʻxshatishlarni hosil qilishi**" toʻgʻrisida boʻlib, unda badiiy matnni tushunish, aytilmoqchi boʻlgan mazmun, gʻoyani idrok etish oson emasligi, asarda muallif fikri har doim ham ochiq tarzda bayon etilavermasligi hamda yozuvchi aytmoqchi boʻlgan fikrni baʼzan obrazli tarzda, baʼzan matn semantik strukturasida yashirin tarzda berilgan tagmaʼno orqali ifodalash mumkinligi alohida taʼkidlanadi. Ammo fikrni obrazli, taʼsirchan ifodalash koʻchimlar, oʻxshatishlarsiz amalga oshirilmaydi. Bu maqsadga erishishda yozuvchi koʻpincha oʻxshatishlardan foydalanadi.

Maʼlumki, oʻxshatishlar tafakkur mahsuli boʻlib, obrazli tasvirlash tarzining ifodasi sifatida yuzaga keladi. Oʻxshatishlarning ikki turi farqlanadi:

1) tilda doimo mavjud boʻlib kelgan turgʻun oʻxshatishlar;
2) har bir muallifning oʻzi yaratgan individual oʻxshatishlarga boʻlinadi.

Turgʻun oʻxshatishlarda esa oʻxshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan boʻladi, garchi bunday oʻxshatishlar maʼlum shaxs yoki ijodkor tomonidan avval qoʻllangan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan ular til jamoasida doimiy ifodalar singari turgʻunlashib, umumxalq leksikasidan joy olgan boʻladi.

Asqad Muxtor ijodida ham terminlarni badiiylik boʻyogʻiga botirilgan, erkin oʻxshatishlar va turgʻun oʻxshatishlarning goʻzal namunalariga duch kelamiz. Termin-oʻxshatishlar badiiy asarlarda qahramonlarning hayot tajribasidan chiqargan xulosalarini, turli psixologik vaziyatlarni ifodalash uchun ham qoʻllaniladi:

Hammasi Qultoy gazanda kasofatidan. **Buzoqboshiday oʻrmalab** *oʻtib qolsa, qiz bechoradan oʻsha kuni ovqat ham oʻtmas ekan. Jirkansa kerakda. Boboshning*

mana shunday qoni qaynagan paytda ro'parasidan chiqib ham qolmaydiki, do'ng peshonasini qorong'ida qumga ishqasa ("Chinor") .

Ushbu parchadagi *buzoqboshiday o'rmalab* o'xshatishi orqali muallif insonning ruhiy holatini yoritishga harakat qilgan. Boboshning bemalollik bilan, shoshmasdan yurishi uni betoqatlilik bilan kutib turgan Zumrad uchun buzoqboshiday o'rmalab yurganga o'xshab tuyulishi o'rinli o'xshatishni hosil qilgan. Asabiy ahvolda (qoni qaynagan paytda) kutib turgan Zumrad Boboshni uchratsa, qanday qilib bo'lsa ham alamini olmoqchiligi insondagi psixologik jarayon bo'lib, adib uni "peshonasini qumga ishqasa" tasviri bilan o'xshatgan. Umuman olganda, adib asarlarida inson tana a'zolari bilan bog'liq o'xshatishlarni ko'plab uchratish mumkin. Bu kabi termin-o'xshatishlar badiiy asarga lingvopoetik maqsad asosida olib kiriladi.

Lingvopoetik salmoq va badiiy-estetik qimmat jihatidan individual o'xshatishlar yozuvchining o'ziga xos uslubini, mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida ahamiyatga ega. Muallif matnda o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda turli-tuman o'xshatishlarni yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmagan, o'zgachaligi bilan o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi.

*Uzoqdan yaxshi ko'rmas ekan shekilli, u musofirga yana boshdan oyoq razm soldi. Keng manglayidagi, qonsiz yuzidagi dag'al ajinlari yana ham chuqurlashdi, pahmoq qoshlari ostida shiddatli **ko'zlari po'latdek yiltilladi*** ("Chinor").

Ushbu parchadagi ko'zning po'latga qiyoslanish holati ham diqqatimizni beixtiyor o'ziga jalb etadi, chunki boshqa ijodkorlarda ko'zni po'latga qiyoslash holati kam kuzatiladi. Ko'zni ko'pincha ohuga, qora tunga, porloq yulduzga qiyoslash holatlari uchraydi. Adib bu o'rinda chol obrazidagi shiddatli po'lat ko'zlar timsoli orqali po'latning yorqin nur taratmasa-da, uning uncha-munchaga bukilmaydigan, sinmaydigan metall ekanligiga ishora qilmoqda. Garchi o'zi qarib, ko'z nuri kamaygan bo'lsa-da, qahrli ko'zlarning shiddatli boqishi ma'nosini anglashimiz mumkin bo'ladi.

Yozuvchi badiiy matnda fikriy maqsadini bayon etish uchun ba'zi holatlarda, individual termin-o'xshatishlardan ham foydalqanadi. Bu esa badiiy asarning estetik ta'sir kuchini yanada orttiradi. Ayniqsa, badiiy asarda o'rinli hosil qilingan o'xshatishlar oddiy so'zga nisbatan kuchliroq ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

*Shafaq **ochiq yara** singari qip-qizil. Anchadan buyon bir maromda eshitilayotgan alla bu bezovta, notinch oqshomga osoyishtalik, umidvorlik, mas'ud bir ruh bag'ishlashga behuda urinayotgandek edi* ("Hurkigan tush").

Ushbu parchada shafaqning qizarib ko'rinishini ochiq yaraga qiyoslanishi bejiz emas, albatta. Inson tanasidagi ochiq yaraning qizil rangda bo'lishi quyosh botishidagi ufqning qizil tus olishiga qiyoslanib, o'xshatilayotgan narsaning belgi-xususiyati nazarda tutilmoqda. Bilamizki, yaraning og'riqlari, azobli xususiyatlari ham ba'zan o'xshatiladi. Bu o'rinda uning aynan qizil rangi nazarda tutilmoqdaki, bu o'xshatish ham adibning individual o'xshatishlaridan biriga misol bo'ladi. Uni ijodkorning badiiy topilmasi deyish mumkin. Xullas, Asqad Muxtor o'z

asarlarida terminlar orqali individual o'xshatishlarni hosil qilib, badiiy matnda ularni estetik ahamiyatga ega birlikka aylantira olgan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli "**Adib asarlarida qo'llangan kasbiy atama va terminlarning metaforik xususiyatlari"** deb nomlangan. Uzoq yillar davomida metaforaga badiiy tasvir vositasi sifatida baho berilib, adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti sifatida qarab kelindi. Ammo har qanday badiiy ifoda muayyan lingvistik tamoyillarga asoslanadi. Shu jihatdan badiiy nutqda qo'llangan metaforik ko'chimlar tilshunoslikning ham tadqiq obyekti sanaladi. Ba'zi olimlar esa metaforani lingvistik va badiiy metafora kabi turlarga ajratadilar. Xususan, N.Mahmudov metafora mohiyatidagi bunday ikkiyoqlamalikka ko'ra bu hodisaning ikki asosiy turini: lisoniy metafora va poetik (badiiy) metaforani farqlagan[11].

Anglashiladiki, metafora turli fan sohalarida mohiyatan farqli belgilarga ega. Metafora so'zning turli ma'no qirralarini namoyon qiluvchi muhim vosita sifatida badiiy adabiyotda, ayniqsa, ahamiyatlidir.

> *Qo'rg'oshin satrlar mening so'zlarim*
> *Go'yo oboymaga joylanar edi.*
> *Shundan buyon so'zlar puch-u sarak,*
> *Goho yengil tuyuladi. Yo'q...*
>
> (She'rimda bir satr zaifroq edi).

Ushbu she'rda shoir *qo'rg'oshin satrlar* birikmasini hosil qilishda qo'rg'oshin terminidan foydalangan. *Qo'rg'oshin* so'zi ma'danshunoslik termini bo'lib, bu o'rinda ko'chma ma'noda she'r satrlariga nisbatan ishlatilib, misralarning yuki og'ir ekanligiga ishora qilgan. Ya'ni shoirning har bir satri ko'p ma'nolarni jamlaganidan og'ir aylanayotgan valda puchagi puchakka va saragi sarakka ajraladi. Demak, shoirning she'rlari ming chig'iriqdan o'tib yaralmoqda, bu she'rlar, albatta, yetib borgan qalblarda qo'rg'oshindek quyiladi. Ko'rinadiki, metaforik ma'noli termin she'riy parchada ta'sirchanlikni yuzaga keltirgan, unga estetik zavq bag'ishlagan. Asqad Muxtor badiiy asarlarida poetik maqsadini amalga oshirishda turli til vositalariga, xususan, terminlarga ham murojaat qiladi. Uning asarlarida terminlar badiiy maqsad hosilasi sifatida o'xshatishli qurilmalarni hosil qiladi, metaforik ko'chimlar vazifasini bajaradi. Bu holat adib asarlarining estetik qimmatini, ta'sir kuchini oshirishga olib keladi.

Uchinchi bob **"Asqad Muxtor asarlarida soha terminlarining uslubiy xoslanishi"** deb nomlangan. Bobning birinchi fasli **"Asqad Muxtor asarlarida aniq hamda tabiiy fanlar terminlarining badiiy uslubga xoslanishi"** bo'lib, unda yozuvchi asarlarida qo'llangan soha terminlarining nutq uslublariga xoslangan masalasi yoritilgan.

Ilmiy matnda maxsus tushunchalarni nomlashda qo'llanuvchi, matnning semantik-sintaktik qurilishida tayanch birliklar vazifasini o'tovchi lug'aviy birliklar, yani terminlar bo'lib, ular qaysi fan tarmog'iga tegishli ekanligiga

---

[11] Махмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – №4 . – Б. 10-11.

ko'ra shu fan sohasining terminlar tizimini tashkil qiladi. Jumladan, terminlarni qanday fan sohasiga taalluqli ekanligiga ko'ra aniq va tabiiy fanlar terminlari farqlanadi. Bu fan sohaviy terminlar boshqa nutq uslublarida, xususan, badiiy matnlarda qo'llashda muayyan poetik maqsad nazarda tutiladi. Bunda badiiy uslubning terminlarni qabul qilishi xususiyati muhim ahamiyatga ega.

Badiiy matnda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar terminlari ekspressiv-emotsionallikni ifodalash, tasviriylikni yuzaga keltirish uchun qo'llanilar ekan, badiiy tasvir vositasiga aylanadi. Bu asarning estetikligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Asqad Muxtor o'z asarlarida terminlarning bu turidan lingvopoetik maqsadlarda foydalanishga harakat qilgan. U nafaqat nasriy asarlarida, balki nazmiy asarlarida ham tabiiy va ijtimoiy fanlar terminlariga murojaat qilgan holda takrorlanmas badiiy tasvir vositalarini yaratgan. Serqirra ijodkor she'riyatga "qalbga qanot", "dardga davo beruvchi" vosita sifatida qaragan. U she'rlarida sohaviy terminlarni mohirlik bilan ishlatib, ularning estetik qimmatini oshirgan. Xususan, ijodkor "Naykamalak, sizningcha…" deb boshlanuvchi quyidagi she'rida tabiiy fanlarga oid terminlardan lingvopoetik maqsadda foydalangan:

Naykamalak, *sizcha*, **spektrlar** *xolos,*
Vibratsiya, *deysiz, qushlar na'masin.*
She'r esa, mana qalam bilan qog'oz,
Programmalashgan *harflar yig'masi.*

Ko'pchiligimiz tabiat hodisalaridan biri bo'lgan kamalakning hosil bo'lish shaklini juda yaxshi bilamiz. Asqad Muxtor kamalakni oddiy "kamalak" deb emas, balki "naykamalak" deb ataydi. Ijodkor she'rida uni spektrga qiyoslagan.

Ma'lumki, *spektr* – lotincha so'z bo'lib, *spektrium – "ko'zga ko'rinadigan, ko'rib bo'ladigan narsa, tasvir"* ma'nolarini anglatadi[12]. Biror nurlanishda hosil bo'ladigan to'lqin chastotalari majmuyi ham spektr hisoblanadi. Spektrga tushgan nur turli rang ko'rinishida sinib qaytadi[13]. Asqad Muxtor spektrning keyingi ma'no xususiyatini inobatga olgan holda uni har xil ranglarda tovlanuvchi kamalakka qiyoslab, o'ziga xos badiiy tasvir hosil qila olgan.

She'riy parchada qo'llangan *vibratsiya* termini esa lotincha *"vibratio" – "uloqtirish; tebratish, titrash"*[14] ma'nosini anglatuvchi so'zdan olingan. Matnda *vibratsiya* termini qushlar na'masiga, ya'ni ovoziga nisbatan ishlatilgan. Bu terminning qushlar ovoziga qiyoslanishida ovozning to'lqinli harakati inobatga olingan. Ijodkor tabiiy fanlarga oid *vibratsiya* terminining ma'no-mohiyatini aniq bilganligi bois u yordamida o'ziga xos badiiy tasvir yarata olgan.

She'rda texnik fanlar sohasiga mansub *programmalashgan* termini ham uchraydi. Adib she'rni *programmalashgan harflar yig'masi* sifatida tasvirlash orqali ijod jarayonida she'riy misralar o'z-o'zidan yuzaga kelmasligi, she'r

---

[12] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – 2008. – Б. 565.
[13] www.uz.m.wikipedia.
